Nurotada olimlarning sayyor seminari tashkil etildi

Nurota tumanida Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limining sayyor ilmiy-amaliy seminari o‘tkazildi. Seminar Bo’lim olimlarining qishloq xo’jalik ekinlari hosildorligini oshirish va suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etishga yo’naltirilgan innovatsion ishlanmalarning dala tajriba-sinovlari natijalari taqdimotiga bag’ishlangan.

Seminarda Navoiy viloyati hokimining qishloq va suv xo’jaligi masalalari bo’yicha o’rinbosari Akmaljon Maxmudaliyev, Nurota tumani hokimi Azamat Fayziyev, viloyatdagi qishloq xo’jaligiga oid tashkilot va muassasalar rahbarlari, fermerlar hamda Bo’limning yetakchi olimlari, doktorantlari va stajyor-tadqiqotchilari ishtirok etdilar.

Ular joriy yilning aprel oyida tashkil etilgan pavlovniya plantatsiyasini, lalmikor yerlarda bug’doy yetishtiriladigan dalani, cho’l-yaylov ozuqabop o’simliklari urug’chiligi maydonini katta e’tibor bilan ko’zdan kechirdilar.

Seminar ishtirokchilari sug’orish imkoniyati bo’lmagan dalada joriy yilda yetishtirilgan bug’doyni kombayn yordamida yig’ib-terib olish jarayonini boshlanishini guvohi bo’ldilar. Bu yerda boshoqli don ekinlari yomg’irli mavsumdagina chanqog’ini qondira olgan. Dastlabki hisob-kitoblarga ko’ra, har gektardan kamida 1,5 tonna bug’doy yig’ib olindi. O’rib olingan bug’doy kelgusi yil ekish uchun urug’lik fondiga jo’natiladi. Mutaxassislarning fikriga ko’ra, bunday bug’doy tarkibidagi kleykovina miqdori sug’oriladigan yerlarda o’stirilgandan bo’g’doyga nisbatan kattaroqdir. Bu ko’rsatkich qanchalik yuqori bo’lsa, donli ekinlar sifati shunchalik yaxshi bo’ladi. Biroq, joriy tajribaning yakuniy natijalari namunalarni laboratoriya sinovidan o’tkazgandan so’ng qisqa vaqt ichida ma’lum bo’ladi. Vaholanki, Bo’lim tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion texnologiyani 400 gektardan ortiq yer maydonga joriy etishni bir necha fermer xo’jaliklari istagini bildirdi.

Ayni paytda mazkur fermer xo’jaliklariga markazlashgan holda xizmat ko’rsatish uchun qishloq xo’jaligi texnikalarini xarid qilish bilan texnik ko’mak loyihasini tayyorlash, keyinchalik loyihani o’zaro manfaatli asosda amalga oshirish ko’zda tutilgan.

Viloyat hokimi o’rinbosari A.Maxmudaliyev, tuman hokimi A.Fayziyev va Fanlar akademiyasi Navoiy bo’limi raisi A.Mirzayevlar qishloq xo’jaligi sohasi yetakchi sohalardan biri bo’lib kelgan va shunday bo’lib qolayotganini va respublikaning oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasini qamrab olganini alohida ta’kidladilar. Shu bois, nazariya va amaliyot zamon bilan hamnafas bo’lishi, energiya va resurslarni tejash, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muammolarini hal etishni hisobga olgan holda innovatsiyalarni joriy etish imkonini beradigan olimlar va fermerlar o’rtasida doimiy muloqotni yo’lga qo’yishni taklif qildilar. Ilmiy tadqiqotlarda bu integratsiya jarayoni ijobiy natijalarga olib keladi.